

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**E.Bozorov, M.Axmadjonov**

Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o’qitish texnologiyasining o’rni ..... 233

**N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov**

Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitish uslubiyoti ..... 238

**N.Raxmatova, Sh.Shuxratov**

Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o’quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish ..... 242

**B.Mamatojiyeva, Sh.Shuxratov**

Yog’och materiallaridan murakkab bo’lмаган detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi ..... 248

**Sh.Ashirov, D.Mirzayev**

Akademik litseylarda fizika fanini o’qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish ..... 253

KIMYO

**D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov**

Ephedra Equisetina bunge o’simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi ..... 257

**M.Ismoilov**

Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar ..... 262

**N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,**

Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi ..... 267

**H.Qurbanov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova**

Poliakrilonitril asosida yong’inga chidamli polimer mato olish ..... 274

**I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova**

Qon bosimining oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri ..... 279

**I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova**

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi ..... 283

**H.Rahimova, A.Ibragimov**

*Phlomoides Canescens* o’simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish ..... 289

**N.Qutlimuatov**

Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi ..... 293

**M.Jo’rayev, S.Xushvaqtov**

Polivinilxlorid plastikat asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari ..... 299

**I.Askarov, G’.Madrahimov, M.Xojimatov**

O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o’rganish ..... 304

**S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov**

Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi ..... 308

**O.Tursunmuratov, D.Bekchanov**

Vermikulit asosida olingan yangi ionitga  $Cu^{2+}$  ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi ..... 311

**M.Ismoilov**

Karaulbozor neft fraktsiyalarini tahlili ..... 315

**M.Axmadaliyev, N.Yakubova**

Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi ..... 322

**B.Nu’monov**

Fosforkislotali-gipsli bo’tqasini koversiyalash asosida kompleks o’g’itlar olish ..... 328

**Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov**

Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo’llanilishi ..... 335

**G’.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova**

3,3'-disulfanidilbis (1h-1,2,4-triazol-5-amin) sintezi ..... 341

GEOGRAFIYA

**Y.Axmadaliyev**

Mahalliy aholining shaharsozlik an’analardida landshaft omilining o’rni ..... 346

**K.Boymirzayev, H.Naimov**

Farg’ona botig’i yoyilma landshaftlarining geografik o’rganilishi va tadqiq etilishi ..... 352

**TABIY POLIMERLAR ASOSIDA BIOSORBENTLAR OLISHI VA QO'LLANILISHI****ПРОИЗВОДСТВО И ПРИМЕНЕНИЕ БИОСОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРИРОДНЫХ ПОЛИМЕРОВ****PRODUCTION AND APPLICATION OF BIOSORBENTS ON THE BASIS OF NATURAL POLYMERS**

**Yarmanov Sherimmat Xalillayevich<sup>1</sup>, Botirov Sunnatjon Xudoyberdi o'g'li<sup>2</sup>,  
Bekchanov Davronbek Jumazarovich<sup>3</sup>**

<sup>1</sup>**Yarmanov Sherimmat Xalillayevich**

<sup>2</sup>**Botirov Sunnatjon Xudoyberdi o'g'li**

<sup>3</sup>**Bekchanov Davronbek Jumazarovich**

– Tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun Akademiyasi.

– Tayanch doktorant, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

– k.f.d. dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ekologiyaga, asosan ichimlik suvini zararli metall ionlari va konserogan moddalar bilan ifloslanish yo'llari hamda ularni tozalashda foydalaniладigan kimyoiy, fizikaviy, texnologik usullarni afzallik va kamchiliklari haqida ma'lumot berilgan. Bu usullardan sorbsiya jarayoning boshqa usullardan afzalliklari keltirilgan. Shuningdek, mualliflar tamonidan o'rganilgan suvni zararli moddalaridan tozalashda ishlataladigan biosorbentlar olish sharoitlari va ularning sorbsion xossalari keltirilgan. Biosorbent olishda tabiiy polimer chiqindilari, manbalari va ularni qayta ishlash sharoitlari yoritib berilgan. Sholi qobig'i aktiflash, mehnik ishlov berish va uni mochavina bilan modifikatsiyalash mahsulotini boshqa biosorbentlarga nisbatan sorbsion xossalari solishtirilgan. Bundan tashqari, tabiiy polimerlarni manbalariga ko'ra turlari va ularning sun'iy metall tuzlari eritmalaridan 1 g sorbent uchun sorbsiya miqdorlari keltirilgan. Biomaterialarning sorbsion xossalari Fredlix va Lingmur izoterma modeli metodlaridan foydalaniладigan. Yutilgan metall ioni miqdorini aniqlashda SHIMADZU (UV-1900) spektrofotometrдан foydalaniладi.

**Аннотация**

В данной статье приведены сведения об окружающей среде, в основном о путях загрязнения питьевой воды вредными ионами металлов и канцерогенами, а также о преимуществах и недостатках химических, физических, технологических методов, применяемых при их очистке. Из этих методов вытекают преимущества сорбционного процесса перед другими методами. Авторами также изучены условия получения биосорбентов, используемых при очистке воды от вредных веществ, и их сорбционные свойства. Описаны природные полимерные отходы, источники и условия их переработки при производстве биосорбентов. Проведено сравнение сорбционных свойств продуктов активации, механической обработки и модификации мочевины рисовой шелухи по сравнению с другими биосорбентами. Кроме того, приведены виды природных полимеров по их источникам и количествам их сорбции на 1 г сорбента из растворов искусственных солей металлов. Сорбционные свойства биоматериалов использовали изотермическими модельными методами Фредликса и Лингмура. Для определения количества абсорбированного иона металла использовали спектрофотометр SHIMADZU (UV-1900).

**Abstract**

The article provides information on the environment, ways of contaminating the water of fixed assets with harmful metal ions and carcinogenic poisoning, as well as the advantages and material disadvantages of purified, physical, technological methods of their treatment. Removal of the sorption process from these methods by other methods. The author studied the conditions for obtaining biosorbents in the treatment of water and the site sorption. Natural polymers, sources and conditions of their processing are described in the production of biosorbents. The sorption properties of rice activation, mechanical harvesting and urea modification products were compared with other biosorbents. In addition, 1 g sorption capacity is extracted from sources of natural polymers by type and source of artificial metal salts. The sorption properties of biomaterials were used by the Fredlix and Lingmur isothermal model methods. A SHIMADZU (UV-190) spectrophotometer was used to estimate the amount of metal ion absorbed.

**Kalit so'zlar:** tabiiy polimer, biosorbent, modifikatsiya, sorbsiya, oqova suv, biomassa, sholi qobig'i, metall ioni, sun'iy eritma.

**Ключевые слова:** природный полимер, биосорбент, модификация, сорбция, сточные воды, биомасса, рисовая шелуха, ион металла, искусственный раствор.

**Key words:** natural polymer, biosorbent, modification, sorption, wastewater, biomass, rice husk, metal ion, artificial solution.

**KIRISH.**

Barcha tirik organizmlar uchun suvga bo'lgan asosiy talab uning ifloslanmaganligi va tozaligidir. Yer yuzasining 71% dan ortiq qismini suv tashkil etadi. Ammo turli xil ifloslanishlar tufayli xalqaro standartlarga muvofiq faqat 1% dan kamroq suv ichish uchun yaroqli. Suv ifloslanishining

asosiy manbalariga sanoat korxonalarining oqova suvlari, qishloq xo'jaligi faoliyatni, shahar oqova suvlari, atrof-muhit ifloslanishi va global o'zgarishlar kiradi. Og'ir metallar ionlari, bo'yoglar va mikroorganizmlarning oz miqdorda bo'lishi ham inson salomatligi, suv tizimlari va atrof-muhit uchun juda xavflidir[1]. Og'ir metallar va organik moddalar tabiatan zaharli, turg'un, kanserogen va mutagen xususiyatga ega. Sanoat chiqindi suvlari suv havzalarida metall ionlari bilan ifloslanishi, shuningdek, sirt ifloslanishida asosiy manbaalardan biri hisoblanadi. Oqova suvdan og'ir metal ionlarini olib tashlashning ion almashinuv, membranali filtrlash, elektroliz, koagulyatsiya, flotatsiya va adsorbsiya kabi turli xil usullari mavjud. Biroq, bu usullar yuqori operatsion xarakatlarni, loy hosil bo'lishi va metallarning selektivligi kabi bir qator kamchiliklarga ega. Ular orasida adsorbsion jarayonlar keng tarqalgan usul bo'lib, og'ir metall ionlarini va boshqa ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash uchun eng samarali usuldir. Adsorbentlar qo'llanilganda sorbsiya jarayoni, asosan, ion almashish bilan boradi. Bu esa bir necha afzalliklarga ega bo'lib, muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Jumladan:

- Nodir va rangli metallar gidrametallurgiyasida ionlar va organik moddalarni konsentrash.
- Texnologik jarayonlarda suvni tuzsizlantirish, suvni yumshatish va to'liq ionsizlantirish.
- Sanoat ishlab chiqarish gazlarida mavjud bo'lgan kimyoviy faol aralashmalardan tozalash.
- Tuproqda ion almashinishini yaxshilash va o'simliklarning o'sishi uchun zarur bo'ladigan mikroelement va o'g'itlarni kiritish.

Adsorbsiya jarayonida biosorbentlar keng taddiq etilayotgan adsorbentlar bo'lib, ular ekologik toza, barqaror, tez va iqtisodiy tejamkor jarayonlar asosini tashkil etishi, uning keng qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Biosorbentlar manbalariga ko'ra odatda o'simliklar biomassasi, qisqichbaqasimonlar, hasharotlarning ekzoskeleti, kutikulasi hamda mikrobiologik biomassalarga bo'linadi. Bu mahsulotlar biosorbsiya jarayonida juda samarali va istiqbollidir. Biosorbentlarning juda ko'p qismi tabiatda mahalliy chiqindilar hisoblanadi. O'simlik biomassalari odatda sanoat chiqindi suvlari va oqova suvlarni tozalash uchun biosorbentlar sifatida ishlatiladi. Oqova suvlarini metall ionlaridan tozalashda adsorbent sig'imi, adsorbentning tabiatni, pH qiymati, sorbsiya vaqtini, zarrachalar hajmi va metall konsentratsiyasiga qarab o'zgaradi. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan tabiiy polimerlar asosida olingan biosorbentlarning olinishi va sorbsion xossalari haqida ma'lumotlar keltirilgan[2].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

Xitinni adsorbsiya jarayonida qo'llash eng istiqbollii tabiiy ion almashinuvchi materiallardan biri hisoblanadi. U mos ravishda qisqichbaqasimonlar, hasharotlar va mikroorganizmlarning ekzoskeleti, kutikulasi va hujayra devorining asosiy tarkibiy qismidir. Xitinning deasetilatsiyasi, xitozan va uning hosilalari hosil bo'lighiga olib keladi, bu adsorbsiya uchun xitindan ham istiqbollidir[3]. Xlorofenollar bilan kimyoviy jihatdan o'zgartirilgan xitozan suvli eritmadan 2,4-dixlorofen va 2,4,6-trixlorofenolni olib tashlash 315,46 mg/g va 375,94 mg/g maksimal qiymatni tashkil etgan. Suvni konseragan xususiyatli moddalar kislota ko'ki va oziq-ovqat sarig'lardan tozalashda qisqichbaqalar qobig'idan olingan xitozan kukuni yordamida amalga oshirilgan. Natijada, pH-qiymati, sorbsiya vaqtini va aralashtirish tezligi kabi parametrlerning adsorbsiya jarayoniga ta'siri aniqlangan va optimal sharoitlar kislota ko'ki uchun pH-3, 60 min va 150 rpm va oziq-ovqat sarig'i uchun pH-3, 60 min va 50 rpm deb topilgan. Bu sharoitda adsorbsion sig'imi kislota ko'ki uchun 210 mg/g va oziq-ovqat sarig' uchun 295 mg/g ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari kaltsiy alginat (CA), xitozan bilan qoplangan kaltsiy alginat (XCA) va xitozan bilan qoplangan silika (XCS) biosorbentlar sifatida ishlab chiqilgan Nikel (II) ioning CA, XCA va XCS da adsorbsiya muvozanatini dinamik usullari yordamida tekshirilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, biomateriallar Ni (II) ionini suvli eritmadan samarali yo'qotishda yaxshi adsorbentlardir. Metall ionining adsorbsiyasi adsorbent miqdoriga, metall ionlarining konsentratsiyasiga, aralashtirish vaqtiga va metall eritmasining pH ga bog'liqligi o'rganilgan. Biopolimer sorbentlarda nikel (II) ioning maksimal sorbsiyasi pH 5,0 da ekanligi aniqlangan. Muvozanat adsorbsiyasi ma'lumotlari Langmuir va Freundlich izotermasi modellari bilan yaxshi korrelyatsiya qilingan. CA, XCA va XCS ning maksimal monolayer adsorbsion qobiliyati Ni (II) ioni uchun mos ravishda 310,4 mg/g, 222,2 mg/g va 254,3mg/g ni tashkil etgan. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqilgan biosorbentlar tomonidan Ni (II) ionini o'zlashtirilishi adabiyotda qayd etilgan xitozan, alginat va silikalarnikidan ancha yuqori ekanligi aniqlangan. Ni (II) ionining biosorbsiyasi psevdo-ikkinchli tartib kinetikasiga bo'ybungan[4].

## KIMYO

Bundan tashqari, mikrobiologik biomassalar tamonidan suvni tozalash, yani ular tarkibidagi metall ionlarini yutish miqdorlari mualliflar tamonidan o'rganilgan. Bu jarayonning turli jihatlarini o'rganilib biomassadan foydalanish va jarayonga ta'sir qiluvchi omillar (pH, metallning dastlabki kontsentratsiyasi, metallarning spetsifikatsiyasi, biomassa konsentratsiyasi, harorat, boshqa kationlar va anionlarning mavjudligi, biomassani oldindan tozalash); matematik modellashtirish; mexanika; termodinamik va kinetik jihatlar, shuningdek, turli ekstragent reagentlar yordamida biomassani qayta tiklash imkoniyatlari o'rganilgan. So'nggi o'n yillikda suv o'tlaridan foydalanib bir nechta metall ionlarini yutish miqdorlari topilgan(1-jadval) [5].

1-jadval

Mikrobiologik biomassa	Metall ioni	$q_{ma}$ , (mmol/g)
Ascophyllum nodosum (B)	Cd <sup>2+</sup>	0.34-1.91
	Ni <sup>2+</sup>	1.35-2.32
	Pb <sup>2+</sup>	1.31-2.31
Chaelomorha linum (G)	Cd <sup>2+</sup>	0.48
Chlorella miniata (G)	Cu <sup>2+</sup>	0.366
	Ni <sup>2+</sup>	0.21-1.02
Chlorella vulgaris (G)	Cd <sup>2+</sup>	0.30
	Pb <sup>2+</sup>	0.47
	Zn <sup>2+</sup>	0.37
	Cu <sup>2+</sup>	0.25-0.76
Cladophora glomerata (G)	Pb <sup>2+</sup>	0.355
Chondrus crispus (R)	Ni <sup>2+</sup>	0.443
	Pb <sup>2+</sup>	0.941
Codiumfragile (G)	Cd <sup>2+</sup>	0.082,7
Codium laylori (G)	Ni <sup>2+</sup>	0.099
	Pb <sup>2+</sup>	1.815


Shuningdek, qishloq xo'jaligi qoldiqlari; meva va sabzavot po'stlog'i tashlab yuboriladigan chiqindi mahsulotlar bo'lib, ulardan amalda foydalanilmaydi. Ularga ishlov berishdan so'ng arzon narxlardagi biosorbent sifatida ishlatalishi mumkin. Apelsin qobig'i[6], pomelo qobig'i[7], limon qobig'i[8], banan qobig'i[9] va guruch qobig'i[10] kabi boshqa biosorbentlar oqova suvlarni zararsizlantirishda foydalanilmogda. Ularning sun'iy eritmalardan metall ionlarini yutish sharoitlari miqdorlari o'rganilgan.

2-jadval


Adsorbent	Ifloslantiruvchi moddalar turi	Adsorbsiya sharoitlari	Samaradorlik (mg/g)	Adsorbsiya izoterma modeli
Guruch qobig'i	As <sup>3+</sup> As <sup>5+</sup>	pH-7pH-4	0.139 0.147	Langmuir
Mango qobig'i	Cu <sup>2+</sup> Ni <sup>2+</sup> Zn <sup>2+</sup>	pH-5 dan 6 gacha	46.09 39.75 28.21	Langmuir
Banan qobig'i	Cu <sup>2+</sup>	pH-6.5	27.78	Langmuir
Choy chiqindilari	Cu <sup>2+</sup> Pb <sup>2+</sup>	pH-5 dan 6 gacha	48.0 65.0	Langmuir

Keltirilgan qishloq xo'jaligi chiqindilari asosi lignin, gemisellezoa va sellyulozadan iborat bo'lib, bu tabiiy polimerlarning o'ziga xos tuzilishi va kimyoviy xossalari tufayli muqqobil adsorbentlar vazifasini bajaradi. Alkogol, fenol, aldegid, karboksil va keton kabi o'ziga xos funksional guruuhlar tabiiy polimer zanjirlarida mavjud bo'lib, ular suvdan turli ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlashga yordam beradi. Shu kabi biosorbentlarning metall ionlarini yutish miqdorlari va sharoitlari 2-jadvalda keltirilgan[11].

O'zbekiston iqlim sharoitida sholi eng ko'p ekladigan donli o'simlik hisoblanadi. Sholi qobig'i mahalliy chiqindi hisoblanib, biosorbent sifatida foydalanish mumkin. Tadqiqotchilar tamonidan turli xil moddalar bilan modifikatsiyalangan sholi qobig'idan turli xil maqsadlardan foydalanish mumkin bo'lgan biomateriallar va yuqori sorbsion xossali biosorbentlar sintez qilingan. Hususan etilendiamin bilan modifikatsiyalangan selleloza tutgan materiallarni olish uchun reaksiya borish sharoitlari o'rganilgan[12].




Olingen sorbentni ikki valentli metall ionlari yutishi o'rganiyganda  $\text{Co}^{2+} > \text{Cu}^{2+} > \text{Zn}^{2+} > \text{Ni}^{2+}$  tartibi bo'yicha o'zgarishi aniqlandi. Shunungdek, Besh a'zoli siklik organik angidridlar bilan atsillanish modifikatsiyasi reaksiyasi ham o'rganilgan[13]. Ushbu sellyuloza hosilalari suvni ifloslantiruvchi moddalardan tozalashda qo'llash mumkin. Masalan, malein (a) va ftal(b) angidridlari bilan modifikatsiyalangan sellyuloza hosilalari yashil malaxit bo'yog'ining adsorbsiyasi o'rganilganda sof sellyulozadan ko'ra samaraliroq ekanligi aniqlangan.




Bundan tashqari malein angidrid bilan o'zgartirilgan sellyuloza hosilasi ikki valenli metallarning ( $\text{Co}^{2+}$  va  $\text{Ni}^{2+}$ ) adsorbsiyasi va adsorbsiya mexanizmi o'raniqilgan. Karboksil guruhlari va

## KIMYO

ikki valentli kationlarning asosiy markazlari orasidagi kompleks hosil bo'lishi bilan yutilishi aniqlangan[14].



Fosfat kislota bilan modifikatsiyalashda dastlab eritilgan karbamid bilan sellyuloza reaksiyasi olib borilgan. Olingan sellyuloza suspenziyasiga suv va fosfat kislota qo'shilgan. Reaksiya quydagi sxemada ko'rsatilganidek, 423 K da 30 minut davom olib borilgan[15].



## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bizning izlanishlarimiz sholi qobig'ini mochevinaning suvli eritmalar bilan modifikatsiyalab biosorbentning sorbsion xossalarni o'rGANISHDAN iborat. Olingan biosorbentni metall ionlarini sorbsiyasi o'rGANILGANDA Ni (II) ionini yutish miqdori xona haroratida 179.15 mg/g ni tashkil qilgani aniqlandi. Sorbsiya miqdori SHIMADZU (UV-1900) spektrofometrda aniqlandi.

## XULOSA.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biosorbent mahalliy xomashyolardan sintez qilinadi. Bu esa o'z navbatida biomaterialning tannarxi arzon bo'lishiga olib keladi. Biosorbentning sorbsion xossasi boshqa biosorbentlarga qaraganda bir muncha katta ekanligi uni sanoat korxonalarining oqava suvlarini tozalashda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jamil, M., Zia M.S., Qasim M. Contamination of agro-ecosystem and human health hazards from wastewater used for irrigation. 2010. November 2009. Journal- Chemical Society of Pakistan 32(1):378-bet.
2. Ksenik T.V., Yudakov A.A., Perfil'ev A.B. Noviy sorbent dlya ochistki stochnix vod ot organicheskix zagryazneniy-iskustvennyi perlit. Ekologiya i promishlennost Rossiya - 2009. 19-21 betlar.
3. Kyzas, G.Z., Bikaris, D.N. Recent modifications of chitosan for adsorption application. Marine Drugs 13(1)2015. 313-bet.
4. Vijaya V, Srinivasa R. Popuri, Veera M. Boddu, A. Krishnaiah. Modified chitosan and calcium alginate biopolymer sorbents for removal of nickel (II) through adsorption. Carbohydrate Polymers Volume 72, Issue 2, 5 May 2008, 267 bet.
5. Brinza L., Dring M.J., Gavrilescu M. Marine micro and macro algal species as biosorbents for heavy metals treatment. School of Biological Sciences 2007. 237bet.
6. Anastopoulos, I., Kyzas, G.Z. Agricultural peels for dye adsorption. Journal of Molecular Liquids. Volume 200, Part B, December 2014, 388-bet.

7. Hassan, A.A., 2014. Removal of reactive red 3d from aqueous solution by using treated orange peel. *International Journal of Civil Engineering and Technology*. 162 bet (IJCET) (Vol.5, No. 3).
8. Tasaso, P. Adsorption of copper using pomelo peel and depectinated pomelo peel. *Journal of Clean Energy Technologies*, 154 –b. Vol. 2, No. 2, April 2014
9. Kannan, N., Veemaraj, T. Dynamics and equilibrium studies for the removal of Cd<sup>2+</sup> and Cd<sup>2+</sup> EDTA onto lemon peel carbon. January 2010. *Indian Journal of Environmental Protection* 30(1):26-33 betlar.
10. Ponou, J., Wang, L.P., Dodhiba, G., Matuo, S., Fujita, T. Effect of carbonization on banana peels for removal of cadmium ions from aqueous solution. *Environmental Engineering and Management Journal* April 2016 15(4):851-860 betlar.
11. Bhatnagar, A., Sillanpaa, M., Witek-Krowiak, A., Agricultural waste peels as versatile biomass for water purification–A review. *Chemical Engineering Journal* 2015 Vol.270. 247-bet.
12. Edson C. da Silva Filho, Ju'lio C. P. de Melo and Claudio Airoldi .Preparation of ethylenediamine-anchored cellulose and determination of thermochemical data for the interaction between cations and basic centers at the solid/liquid interface. *Carbohydrate Research* 341 (2006) 2848 bet.
13. Vieira A P, Santana S A A, Bezerra C W B, Silva H A S, de Melo J C P, da Silva Filho E C, Airoldi C. Copper sorption from aqueous solutions and sugar cane spirits by chemically modified babaçu coconut (*Orbignya speciosa*) mesocarp. *Chemical Engineering Journal* 2010, Volume161(Issue1-2)
14. Edson C da Silva Filho , Júlio C P de Melo, Claudio Airoldi. Preparation of ethylenediamine-anchored cellulose and determination of thermochemical data for the interaction between cations and basic centers at the solid/liquid interface. *Carbohydrate Research* 341 (2006) 2845 -bet.
15. de Melo J C P, da Silva Filho E C, Santana S A A, Airoldi C. Synthesized cellulose/succinic anhydride as an ion exchanger. *Calorimetry of divalent cations in aqueous suspension. Thermochim Acta* 2011; 29 – 34 betlar.